

Avstriya Federal Hukumati
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida
diplomatik pasport egalarini viza talablaridan ozod etish
to‘g‘risida
BITIM

AVSTRIYA FEDERAL HUKUMATI

va

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI,

Keyingi o‘rinlarda “Tomonlar” deb ataluvchilar,

O‘zbekiston Respublikasi va Avstriya Respublikasi diplomatik pasport egalari uchun kirishni yengillashtirish istagida,

QUYIDAGILAR TO‘G‘RISIDA KELISHIB OLDILAR:

1-modda

Vizadan talablaridan ozod etish

1. Amaldagi biometrik diplomatik pasportga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan Avstriya Respublikasi hududiga yoki 1985-yil 14-iyundagi Umumiy chegaralardagi nazoratni bosqichma-bosqich bekor qilish to‘g‘risidagi Shengen bitimini amalga oshirish bo‘yicha 1990-yil 19-iyundagi Shengen konvensiyasi tatbiq etiladigan boshqa davlat hududiga kirgan kundan boshlab hisoblanadigan bir yuz sakson (180) kunlik davr mobaynida to‘qson (90) kundan oshmaydigan muddatga Avstriya Respublikasi hududiga kirish uchun viza olish talab etilmaydi.

2. Amaldagi biometrik diplomatik pasportga ega bo‘lgan Avstriya Respublikasi fuqarolaridan kirgan kundan boshlab hisoblanadigan bir yuz sakson (180) kunlik davr mobaynida to‘qson (90) kundan oshmaydigan muddatga O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirish uchun viza olish talab etilmaydi.

2-modda

Kirish va chiqish shartlari

O'zbekiston Respublikasi va Avstriya Respublikasi amaldagi biometrik diplomatik pasportlariga ega shaxslar boshqa Tomon davlati hududiga vakolatli migratsiya organlari tomonidan shu maqsad uchun ruxsat etilgan istalgan o'tish punktlari orqali kirishlari va chiqishlari mumkin, bunda faqat xavfsizlik, migratsiya, bojxona, sanitariya hamda bunday pasport egalari uchun qonuniy ravishda qo'llaniladigan boshqa qoidalar bilan belgilangan cheklovlar bundan mustasno.

3-modda

Uzoq muddatli bo'lish va mehnat faoliyati

Mazkur Bitimning 1-moddasi qoidalari boshqa Tomon davlati hududida 1-moddada ko'rsatilgan muddatdan uzoqroq muddat qolishni yoki u yerda mehnat faoliyatini amalga oshirishni rejalashtirgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

4-modda

Imtiyoz va immunitetlarga ega fuqarolar

Xalqaro huquqqa muvofiq imtiyoz va immunitetlardan foydalanadigan hamda qabul qiluvchi davlat tomonidan berilgan tegishli identifikatsiya kartasiga ega bo'lgan Tomonlardan birining fuqarolari, ushbu identifikatsiya kartasi amal qilgan davri mobaynida va O'zbekiston Respublikasi yoki Avstriya Respublikasining amaldagi biometrik diplomatik pasporti bilan birgalikda taqdim etilgan taqdirda, ushbu Tomon davlati hududida bo'lish yoki qayta kirish uchun viza yoki yashash ruxsatnomasini olishlari talab etilmaydi.

5-modda

Ma'lumot almashinuvi talablari

1. Tomonlar mazkur Bitimning 1-moddasida nazarda tutilgan pasport namunalarini Bitim imzolanganidan keyin o'ttiz (30) kun ichida diplomatik kanallar orqali almashadilar hamda har bir Tomon yangi yoki o'zgartirilgan diplomatik pasport namunasini bunday pasportlar chiqarilishidan kamida o'ttiz (30) kun oldin boshqa Tomonga taqdim etadi.
2. Tomonlar pasport berish bilan bog'liq o'z milliy qonunchiligi va normativ hujjatlaridagi har qanday o'zgarishlar to'g'risida bir-birini tegishli tartibda xabardor etadilar.
3. Basharti Tomonlardan birining fuqarosi mazkur Bitimning 1-moddasida nazarda tutilgan amaldagi diplomatik pasportini boshqa Tomon davlati hududida yo'qotib qo'ysa, u qabul qiluvchi Tomonning vakolatli organlariga bu haqda xabar beradi. Tegishli diplomatik vakolatxona yoki konsullik yangi pasport yoki yo'l hujjatini beradi hamda bu haqda qabul qiluvchi Tomonning vakolatli organlarini xabardor qiladi.

6-modda
Huquqlar va majburiyatlar

1. Mazkur Bitim Tomonlardan birining fuqarolarini boshqa Tomonning chet el fuqarolarining kirishi, bo‘lishi va chiqishiga oid qonunlari va qoidalariga rioya qilish majburiyatidan ozod etmaydi.
2. Tomonlarning har biri nomaqbul deb topilgan yoki jamoat tinchligi, tartibi, sog‘ligi yoki milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi shaxslarning kirishini rad etish yoki ularning bo‘lish muddatini qisqartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

7-modda
Nizolarni hal etish

Mazkur Bitimni talqin qilish yoki amalga oshirish bilan bog‘liq yuzaga keladigan har qanday kelishmovchilik yoki nizo Tomonlar o‘rtasida bevosita maslahatlashuvlar yoki muzokaralar orqali do‘stona hal etiladi.

8-modda
To‘xtatib turish

1. Har bir Tomon jamoat tartibi, milliy xavfsizlik, jamoat sog‘lig‘i, hujjatlar xavfsizligi, boshqa Tomon hududidan noqonuniy migratsiyaning sezilarli darajada ortishi yoki readmissiya bo‘yicha hamkorlikning yetarli emasligi sababli ushbu Bitimni to‘liq yoki qisman vaqtincha to‘xtatib turishi mumkin.
2. Mazkur Bitimni to‘xtatib turish yoki uning amal qilishini qayta tiklash to‘g‘risida qaror qabul qilgan Tomon bu haqda darhol diplomatik kanallar orqali yozma ravishda boshqa Tomonni xabardor qiladi. Bunday qaror boshqa Tomon tarafidan bildirishnoma olinganidan keyin o‘n to‘rt (14) kun o‘tgach kuchga kiradi. Favqulodda hollarda to‘xtatib turish darhol kuchga kiradi va boshqa Tomonga darhol, biroq to‘xtatib turish amalga oshirilganidan keyin uch (3) kundan kechiktirmay, to‘xtatib turish asoslari ko‘rsatilgan holda ma’lum qilinadi.

9-modda
O‘zgartirishlar

Tomonlarning o‘zaro roziligi bilan mazkur Bitimga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin. Bunday o‘zgartirishlar ushbu Bitimning ajralmas qismi hisoblanadi va 10-moddada nazarda tutilgan tartibda kuchga kiradi.

10-modda
Kuchga kirishi va tugatilishi

1. Mazkur Bitim Tomonlar diplomatik kanallar orqali uning kuchga kirishi uchun milliy qonunchiliklariga muvofiq zarur barcha tartib-taomillar bajarilganligi to‘g‘risida bir-birini

xabardor qilgan oy tugaganidan keyingi ikkinchi oyning birinchi kunidan boshlab kuchga kiradi. So'nggi bildirishnoma olingan sana hal qiluvchi hisoblanadi.

2. Mazkur moddaning 1-bandiga daxl qilmagan holda, basharti O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Avstriya Federal Hukumati o'rtasidagi migratsiya va mobillik bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Bitimning kuchga kirish sanasi mazkur moddaning 1-bandida nazarda tutilgan sanadan keyin bo'lsa, mazkur Bitim faqat O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Avstriya Federal Hukumati o'rtasidagi migratsiya va mobillik bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Bitim kuchga kirgan sanadan boshlab kuchga kiradi.

3. Har bir Tomon diplomatik kanallar orqali yozma bildirishnoma yuborish orqali ushbu Bitimni istalgan vaqtda tugatishi mumkin. Bunday holda Bitim boshqa Tomon tarafidan bildirishnoma olinganidan uch (3) oy o'tgach o'z kuchini yo'qotadi.

Tegishli tartibda vakolatlangan quyida imzo chekuvchilar shunga guvohlik berib, mazkur Bayonnomani imzoladilar.

..... shahrida,
kuni, ikki asl nusxada, nemis, o'zbek va ingliz tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar teng autentik hisoblanadi. Talqinda tafovut yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

**Avstriya Federal
Hukumati nomidan**

**O'zbekiston Respublikasi
Hukumati nomidan**